

O'ZBEK TILIDAGI KO'MAKCHI FE'L XUSUSIYATLARI

Egamova Kamola Akmal qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

stajyor-tadqiqotchisi

Annotatsiya.

Mazkur tezis o'zbek tilidagi ko'makchi fe'llarning leksik-grammatik xususiyatlari, ularning yetakchi fe'llar bilan birikib hosil qiladigan tuzilmalaridagi o'rni va semantik nozikliklarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Asarda ko'makchi fe'llarning mustaqil ma'noga ega emasligi, sintaktik jihatdan yetakchi fe'lga bo'ysunib kelishi, ular orqali hosil bo'lgan fe'l birikmalarining so'z birikmasi yoki qo'shma so'zdan farqli jihatlari asoslab beriladi. Azim Hojiyevning ilmiy qarashlariga tayanilgan holda, ko'makchi fe'llarning boshqa grammatik birliklardan farqlari, ularning klassifikatsiyasi va qo'llanish holatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: ko'makchi fe'l, qo'shma fe'l, mustaqil ma'no, ravishdosh, shaxs-son, zamon, mayl.

Аннотация

Данная тезисная работа посвящена анализу лексико-грамматических особенностей вспомогательных глаголов в узбекском языке, их роли в структурах, образованных с участием основных глаголов, а также семантическим нюансам их употребления. В работе обосновано, что вспомогательные глаголы не обладают самостоятельным значением, синтаксически подчинены основному глаголу и отличаются от словосочетаний и сложных слов, образованных двумя глаголами. На основе научных взглядов Азима Ходжиева раскрываются отличия вспомогательных глаголов от других грамматических единиц, их классификация и особенности употребления.

Ключевые слова: вспомогательный глагол, составной глагол, самостоятельное значение, деепричастие, лицо-число, время, наклонение.

Annotation

This thesis is devoted to the analysis of the lexical and grammatical features of auxiliary verbs in the Uzbek language, their role in constructions formed with main verbs, and the semantic nuances of their usage. The study demonstrates that auxiliary verbs do not carry independent meaning, are syntactically subordinate to the main verb, and differ from verb-based word combinations and compound words. Drawing on the scholarly views of Azim Hojiyev, the paper outlines the distinctions between auxiliary verbs and other grammatical units, provides their classification, and explores their usage patterns.

Keywords: auxiliary verb, compound verb, independent meaning, gerund, person-number, tense, mood.

Fe'l so'z turkumlari ichida eng ko'p shaklga ega bo'lgan, gap tuzilishida markaziy o'rin tutuvchi birlikdir. Uning vositasida harakat va holat ifodalanadi, shuning uchun ham u til tizimining eng muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Fe'l kategoriyasi ichida, xususan, ko'makchi fe'llar alohida ahamiyatga ega. Ular mustaqil fe'llarning grammatik va semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. Azim Hojiyev ko'makchi fe'llarning leksik-grammatik xususiyatlari haqida quyidagicha izoh beradi: "Mustaqil ma'no bildirmaydi, gapning mustaqil bo'lagi bo'lib kelmaydi. Ular o'zi birikib kelgan fe'lning ma'nosiga turli qo'shimcha ma'no beradi va shu fe'l bilan birlikda gap bo'lagi bo'lib keladi".

Azim Hojiyev o'zbek tilidagi ko'makchi fe'llarning ma'nolari, ma'no nozikliklari va qo'llanishdagi xususiyatlarini ilk marta to'la yoritgan tilshunos olimdir. Olim "ko'makchi fe'l" yoki "yordamchi fe'l" termini ba'zi adabiyotlarda keng ma'noda, jumladan, otlar bilan birikib, qo'shma fe'l yasovchi va bog'lama vazifasida qo'llanuvchi qil, et, ayla, bo'l fe'llariga nisbatan ham, ayrim adabiyotlarda e- (edi, ekan) to'liqsiz fe'lga nisbatan ham qo'llanish holatlari kuzatilishini aytib, ularni bir termin ostiga birlashtirish nomuvofiq ekanligini ta'kidlaydi. "Bog'lamalar biror leksik yoki grammatik qo'shimcha ma'no ifodalamay, balki ega bilan kesimni o'zaro bog'lash uchun, kesimni shakllantirish

uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, bularga “bog'lama” terminidan boshqa yana “ko'makchi fe'l” terminini qo'llash ortiqchadir”.¹

Ammo XX asr tilshunoslari ko'makchi fe'l atamasi o'rniga harakat tarzi shakllari atamasini taklif etdilar. Jumladan, Tilshunos O. Shukurov harakat tarzi shakllari paradigmasini tadqiq etar va bu tizimning mustaqil morfologik kategoriya ekanligini ochar ekan, ko'makchi fe'l atamasi ushbu hodisani to'laqonli qamrab olmasligining ikki sababini ta'kidlaydi: “Ko'makchi fe'l atamasi ikki jihati bilan hodisa mohiyatiga unchalik yaqin emas. Birinchidan, ma'lumki, o'zbek va qolaversa, dunyo tilshunosligida lisoniy hodisalar, odatda, ifodalanmishning ma'nosi asosida (kam hollarda vazifasiga ko'ra) nomlanadi: zamon, nisbat, kishilik, mayl kabi. Shunga ko'ra, ko'makchi fe'llar yetakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning tarzini ifodalaganligi bois ham harakat tarzi shakli atamasini qo'llash an'anaga muvofiq keladi. Ikkinchi sababga ko'ra, “harakat tarzi shakli faqat ko'makchi fe'ldangina iborat emas, balki ravishdosh shakli + ko'makchi fe'l ko'rinishidagi murakkab qurilishga ega bo'lib, sintetik-analitik shakldir. Ko'makchi fe'l ravishdoshning tegishli shakli bilangina birikib nutqqa chiqadi”.²

O'zbek tilshunosligida harakat tarzi shakllari o'rganilishini uch katta bosqichga ajratish mumkin. Birinchi davrda harakat tarzi shakllari ya'ni ko'makchi fe'llar doirasida o'rganilgan, shuningdek, nutqiy ma'no xususiyatlari empirik asoslarda ajratilgan. Ikkinchi bosqichda tilshunos ko'makchi fe'llar atamasi harakat tarzi shakliga o'zgartirilib, tarz shakllarining paradigmatic, kategoriyal xususiyatlarini ochishga muvaffaq bo'lindi. Uchinchi bosqichda harakat tarzi shakllarining qo'llanilishi lisoniy va nolisoniy omillar yaxlitligida tadqiq etildi.³

O'zbek tilida yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topgan birikuvlarda yetakchi fe'l ravishdosh formasida bo'lib, shaxs-son, zamon va mayl formalari ko'makchi fe'lga qo'shiladi.⁴

¹ Azim Hojiyev. O'zbek tilida ko'makchi fe'llar. – T., 1966. B. 7.

² Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi – Qarshi: Nasaf, 2017. B.7-9

³ Mengliyeva M. O'zbek tilida “harakat tarzi” ma'nosini ifodalovchi vositalar tizimi. “O'zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnal. B.101.

⁴ Azim Hojiyev *aytdi-qo'ydi, yozdi-oldi* kabi yetakchi fe'l bilan ko'makchi fe'lning bir xil shaklda qo'llanish xodisasi mavjud bo'lsada, bu asosiy holat hisoblanmasligini va faqat ma'lum ko'makchi fe'llar doirasidagina uchrashini aytib o'tadi.

<https://scientific-jl.com/>

Shu o'rinda, yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topgan birikuvlarning so'z birikmalari va qo'shma so'zlardan farqini yaxshi anglash lozim. So'z birikmasida ikkala fe'l ham leksik-grammatik jihatdan mustaqil bo'lib, ular o'rtasida sintaktik aloqa bo'ladi (*yig'lab gapirdi*). Yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topgan birikuvlarda esa faqatgina yetakchi fe'l o'z mustaqil ma'nosini saqlab qoladi va ko'makchi fe'l bilan orada sintaktik munosabat bo'lmaydi.

Yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topgan birikuvlarning qo'shma so'z yasaliş hodisasi deb hisoblab bo'lmasligiga ham bir qancha sabablar bor. Asosiy sabablaridan biri, yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topgan birikuvlarda qo'shma so'zlardan farqli o'laroq yangi ma'no hosil bo'lmaydi. Shuningdek, yetakchi va ko'makchi fe'l orasiga yuklamalar, bo'lishsizlik shakli(-ma), daraja yasovchi -roq qo'shimchasi kabilarni qo'yish mumkinligi bilan ham qo'shma so'zlardan ajralib turadi.

Yetakchi qismning uyushib kelishi, hatto, ular orasida yana boshqa so'zlarning qo'llanishi mumkinligi yetakchi va ko'makchi fe'llardan tashkil topuvchi birikuvlarning qo'shma so'z olmasligini yana ham ochiqroq ko'rsatadi. Qo'shma so'zlarda uning komponentlari bir-biridan ajralmaydi, ular hech vaqt uyushgan holda bo'lmaydi.⁵

Ko'makchi fe'llar ravishdoshning -b/-ib yoki -a, -y shakllari bilan birikadi. Ravishdosh shakli ko'makchi ifodalaydigan grammatik ma'noga mos holda tanlanadi. Masalan, -boshla ko'makchi fe'li harakatning boshlanishi ma'nosini ifodalaydi, shunga ko'ra kelasi zamon ma'nosini ifodalaydigan -a ravishdoshi shakli bilan ishlatiladi; -qo'y- ko'makchi fe'li bilan harakatning tugallangani ma'nosi ifodalanadi, shunga ko'ra -b ravishdosh shakli ishlatiladi. Ko'rinadiki, ko'makchi fe'l ifodalaydigan grammatik ma'no bilan ravishdosh shakli ifodalaydigan ma'no orasida odatda mutanosiblik bo'ladi.⁶

Azim Hojiyev o'zbek tilida tamomila ko'makchi fe'lga aylangan fe'l yo'qligini, ba'zi mustaqil fe'llar ko'makchi fe'l vazifasida ham qo'llanishini aytib,

⁵ Azim Hojiyev. O'zbek tilida ko'makchi fe'llar. – T., 1966. B. 14.

⁶ Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik). Toshkent"Universitet"2006 . B. 201

<https://scientific-jl.com/>

ularga quyidagilarni kiritadi: boshla, yot, tur, yur, o'tir, bo'l, bit, ol, ber, qol, qo'y, chiq, bor, kel, yubor, tashla, sol, tush, o'l, o't, yet, ko'r, qara, boq, bil, yoz.⁷ Ushbu ko'makchi fe'llarni semantik klassifikatsiya bo'yicha 3 turga bo'ladi:

1. Harakat jarayonining xarakteristikasini ko'rsatuvchi ko'makchi fe'llar.
2. Modal ma'nolarni ifodalovchi ko'makchi fe'llar.
3. Yo'nalish ma'nosini ifodalovchi fe'llar.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'zbek tilidagi ba'zi fe'llar ikki guruhga mansub bo'lishi mumkin. Jumladan, ke'makchi fe'llardan biri hisoblangan qol ko'makchi fe'li birinchi guruh fe'llari qatoriga kirib, harakatning bajarilishiga yaqinlashgan fazasini ifodalaydi. Ushbu ko'makchi fe'l har qanday fe'l bilan birikmaydi, balki harakatning yakunlanishini, uning tugash nuqtasini bildiruvchi "bo'l", "bit", "et" kabi fe'llar bilan birikganda yaqinlashganlik ma'nosini beradi. Masalan: "yetib qoldik", "bitib qoldi".

Shuningdek, qol ko'makchi fe'li asta-sekin, darajama-daraja rivojlanib, so'ngra to'la darajasi yuz beruvchi harakatni bildiruvchi fe'llar bilan birikkanda, shu harakatnig norma darajaga yetmaganligini bildiradi. Masalan: semirib qoldi.

Shuningdek, qol ko'makchi fe'li ikkinchi guruh ya'ni modal ma'no ifodalovchi ko'makchi fe'llar qatoriga ham kirib, 3 xil ma'noni ifodalaydi.

- 1) Harakatning tasodifan kutilmaganda yuz berishi ma'nosini bildiradi. *Qanday qilib bu qo'lingga tushib qoldi?* (Oybek)
- 2) Harakatning maqsadga muvofiq emasligi, xohishga qarshiligi ma'nosini bildiradi. *Qoching, birov ko'rib qoladi.* (H. G'ulom, Mash'al)
- 3) "G'animat" ma'nosini, harakatni bajarish uchun imkon beruvchi sharoit o'tkinchi sharoit ekanligini bildiradi. Yur tezroq, vagondan joy olib qolaylik. (Z. Fatxullin. G'unchalar)⁸

Ko'makchi fe'l o'zbek tilida juda muhim rol o'ynaydi, chunki u yetakchi

⁷ Azim Hojiyev. O'zbek tilida ko'makchi fe'llar. – T., 1966. B. 14.

⁸ Azim Hojiyev. O'zbek tilida ko'makchi fe'llar. – T., 1966. B. 196

fe'lining ma'nosini kengaytiradi va harakatning turli jihatlarini aniqroq ifodalash imkonini beradi. Mustaqil ma'no bermasada, ko'makchi fe'l gapda harakatning davomiyligi, tugallanishi, boshlanishi yoki modal jihatlarini kabi nozik ma'nolarni ifodalaydi. Shu bilan birga, u gap tuzilishida grammatik barqarorlikni ta'minlab, so'zlarning o'zaro bog'lanishini kuchaytiradi. Shunday qilib, ko'makchi fe'llar o'zbek tilining sintaktik va semantik tizimida ajralmas va zarur komponent hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullaeva Sh. O'zbek tilidagi harakat harakat tarzi shakllarining lingvokulturalogik va sotsiopragmatik aspektlari. – Qarshi: Nasaf, 2018. – 96 b
2. Hojiev A. O'zbek tilida ko'makchi fe'llar – Toshkent, 1966. – 259 b.
3. Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi – Qarshi: Nasaf, 2017. – 102 b.
4. G'ulomov A. Fe'l. – Toshkent, 1954. – 88 b
5. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik). Toshkent"Universitet"2006 . 464 b.